

## TABIIY MINERAL VERMIKULITDAN FOYDALANIB SORBENTLAR OLISH USULLARI TAHLILI

**Obid Xamzayevich Tursunmuratov**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Ilmiy va metodologik kimyo kafedrasi katta o'qituvchisi, 3-kurs tayanch doktorant

[obidosiyo@gmail.com](mailto:obidosiyo@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Tuproq minerallari hisoblangan halloysit, bentonit, montmorillonite, vermiculit va attapulgitlar so'ngi yillarda asosiy adsorbent sifatida ishlatilish sohasi kengayib bormoqda. Quyidagi ilmiy tadqiqot ishida Vermikulitni turli xil reaktivlar yordamida modifikatsiya usullari orqali ionitlar ya'ni sorbentlar olinishi va og'ir metal ionlaridan Cu(II), Pb(II), Cr(VI), Cd(II) va Zn(II) kabilarning yutilishi taqqoslab chiqilgan.

**Kalit so'zlar.** Bentonit, montmorillonite, vermiculit, xitozan, polisulfid, glitserin, alkil ammoniy, karbamid, aminopropiltrietoksisilan.

### KIRISH

Dunyoning ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlarida ichimlik suvining sifati doimiy ravishda pasayib bormoqda. Bunga sabab sanoat korxonalarining kengayishi, aholi sonining ortishi va ularning faoliyati natijasida oqava suvlarni chiqindilar va kimyoviy moddalar bilan ifloslanishidir. Sanoat tarmoqlari kengayib va rivojlanib borgan sari kation almashinuvchi va anion almashinuvchi materiallarga talab ortib boraveradi [1].

Xususan bo'yoqchilik sanoatida yorqin, sifatli va arzon ranglar kashf qilindi. Ammo shu bilan birgalikda ular zaharli, konserogen va hatto portlovchi xususiyatlarga ega. Eng yomon ifloslantiruvchilar sifatida og'ir metallar bo'lib ularning kam konsentratsiyalari ham ekotizm faoliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ko'plab og'ir metallar masalan, Cu(II), Pb(II), Cr(VI), Cd(II), Zn(II) parchalanmasligi sababli ko'plab oziq ovqat zanjiri bo'y lab to'planishga moyil [2].

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotda og'ir metallarning halloysit, bentonit, montmorillonite, vermiculit va attapulgit kabi tuproq minerallarining 2013 - yildan 2017 - yilgacha bo'lgan asosiy adsorbsiya mexanizmlari haqida ma'lumotlar berilgan. Shuningdek ushbu tuproq minerallarining tuzilishi,

modifikatsiyalangan minerallarning tarkibi (1-jadval) keltirilgan [3].

### 1-jadval

Natural clays	Elemental composition (wt%)								
	SiO <sub>2</sub>	Al <sub>2</sub> O <sub>3</sub>	Fe <sub>2</sub> O <sub>3</sub>	TiO <sub>2</sub>	Loss on ignition	Na <sub>2</sub> O	K <sub>2</sub> O	CaO	MgO
Kaolinite	53.70	43.60	2.00	0.10	–	–	0.50	–	–
Halloysite	46.86	34.10	2.27	2.72	12.60	0.05	0.80	0.13	0.08
Bentonite	50.08	17.40	6.00	–	20.32	1.39	0.84	0.28	3.95
Montmorillonite	65.34	12.89	2.38	0.52	8.06	0.53	1.54	0.24	0.95
Vermiculite	39.00	12.00	8.00	–	–	–	4.00	3.00	20.00
Attapulgite	58.38	9.50	–	0.56	–	–	–	0.40	12.10
Sepiolite	55.21	0.43	0.15	0.05	19.21	0.1	0.15	0.20	24.26

### Tuproq minerallari tarkibidagi metall oksidlарining foiz miqdori.

Ushbu jadvalda vermiculit tarkibida SiO<sub>2</sub>, Al<sub>2</sub>O<sub>3</sub>, Fe<sub>2</sub>O<sub>3</sub>, K<sub>2</sub>O, Ca O va MgO kabi element oksidlari mavjudligi keltirilgan. Vermikulitning umumiyl formulasi A<sub>4</sub>(B<sub>2-3</sub>)O<sub>10</sub>(OH)<sub>2</sub>C•nH<sub>2</sub>O

(A: Si, Al; B: Mg<sup>2+</sup>, Fe<sup>2+</sup>, Fe<sup>3+</sup>, Al<sup>3+</sup>; C: Mg<sup>2+</sup>, Ca<sup>2+</sup>, Ba<sup>2+</sup>, Na<sup>+</sup>, K<sup>+</sup>). A,B, C mos ravishda oktaedrik qavatlar, tetraedrik qavatlar va kation almashinuvchi oraliq qatlamlarni ifodalaydi[4].

Vermikulit tarkibi uning geologik sharoitiga qarab har xil bo'ladi. Turli konlardan olingan vermiculit namunalarini kimyoviy tarkibini turli metodlar atom-adsorbsion spektroskopiya, elektron mikrozodniy mikroskop va rengenofluorescent analizlarda tahlil qilishdi. 2-jadvalda turli xil vermiculit namunalarining kimyoviy tarkibi keltirilgan.Tekshirilgan namunalarning natijalari tahliliga ko'ra vermiculit mineralining namunalari uning qazib olib joylariga qarab kimyoviy tarkibining turli xillagini ko'rsatadi [5].

### 2-jadval

Карьер	SiO <sub>2</sub>	TiO	Al <sub>2</sub> O <sub>3</sub>	Cr <sub>2</sub> O <sub>3</sub>	Fe <sub>2</sub> O <sub>3</sub>	FeO	MnO	MgO	NiO	CaO	Na <sub>2</sub> O	K <sub>2</sub> O
Мадагаскар	44,5	0,69	14,7	-	2,6	-	0,07	33,7	-	-	-	-
Колумбия	45,4	0,73	13,0	-	6,9	1,2	0,11	24,1	-	2,8	0,2	0,6
Бразилия	39,9	1,12	9,27	0,06	-	6,6	0,04	25,4	0,02	0,2	0,04	3,5
Вост.Китай	43,2	1,01	11,8	0,16	-	4,2	0,01	24,2	0,04	0,4	0,7	7,4
Зап.Китай	36,6	1,16	13,9	0,03	-	14,2	0,12	14,5	0,06	1,1	0,6	6,4
Египет	39,1	1,21	12,2	0,25	1,54	8,36	-	22,0	-	0,5	-	10,3

### Turli davlatlardagi vermiculit namunalarining kimyoviy tarkibi



## Natija va muhokama.

**a)Vermikulit oktilamin(OST) sirt faol moddasi bilan modifikatsiyasi.**

Ushbu ilmiy tadqiqot ishida vermiculit oktilamin(OST) sirt faol moddasi bilan o'zgartirildi hamda uning adsorbsiyasi o'rganildi. OST – VER adsorbenti  $Cd^{2+}$  ni 69.595mg/gva  $Pb^{2+}$  ni 121,986 mg/g yutadi. Adsorbsiyaning samaradorligi undagi sirt faol moddaning ion almashinish hamda kompleks hosil qilish xususiyati bilan ifodalanadi. Shuningdek adsorbentning oson regeneratsiya potensiali 90 % ni tashkil qilishi aniqlangan[6].

**b)Vermikulit xitozan moddasi bilan modifikatsiyasi.** Ushbu ishda yangi kompozit xitozan-Fe-Vermikulit tayyorlangan bo'lib quyida dastlab Fe(III) ni xitozan va Vermikulit o'rtasidagi o'zaro ta'siri hamda Xitazan-Fe-Ver-3 ni Cd va Cr ionlarining adsorbsiyalash mehanizmi keltirilgan. Tadqiqot Fe (III) ning Cr (VI) va Cd (II) immobilizatsiyasi bo'yicha xitozan va vermiculit (VMT) o'rtasidagi o'zaro ta'siriga qaratilgan. Fe (III) ning ko'priq bog'lanishi tufayli plyonka xitozan-Fe (III)-vermiculit kompozitsiyasi (CTS-Fe-VMT-3) kompozitsiyasi bo'yicha teng ravishda tarqalishi aniqlangan. CTSning bir qismi VMT ning qatlamlariga kiradi. VMT va CTS-VMT ga nisbatan CTS-Fe-VMT-3 kompozitsiyasi Cr (VI) va Cd (II) ikkilik tizimida yuqori fiksatsiya qobiliyatiga ega ekanligi aniqlangan. Tekshirishlar Fe (III) ning Cr (VI) ni olib tashlashdagi muhim rolini tasdiqladi ( $102.740\text{ mg g}^{-1}$ ) va Cd(II) ( $59,524\text{ mg g}^{-1}$ ). Ikkilik Cr (VI) va Cd (II) tizimining CTS-Fe-VMT-3 tomonidan adsorbsiyasi paytida ham sinergik ta'sir kuzatilgan [7].

**c)Metall polisulfid va tiosulfatlar bilan singdirilgan vermiculit.** Ushbu

tadqiqotda ishqoriy metall polisulfid va tiosulfatlar bilan singdirilgan vermiculit birinchi marta havodagi chiqindi gazlar tarkibidan simobni adsorbsiyalash maqsadida ishlataligan. Tadqiqotda 180 °C da oltingugurt/ vermiculit sanoatda ishlataladigan oltingugurt/ faollashtirilgan uglerod sorbentiga nisbatan chiqindi gazlardan simob bug'larini adsorbsion samaradorligi yuqori ekanligi aniqlangan[7].


**d)Kengaytirilgan vermiculit (EV) yuzasiga glitserinni (Gly) singdirish**

reaktsiyasi natijasida oлган sorbent suvga to'kilgan yog'larni olib tashlash uchun yuqori samarali vositadir. Vermikulit gletserin ishtirokida reaksiya turli nisbatlarda turli haroratlarda olib borilgan va SEM, TG va Raman tahlillari 380 °C da glitserin polimer qatlamini hosil qilishini ko'rsatdi. Ushbu materiallar suvga to'kilgan uch xil moylarni, ya'ni dizel, soya va motor moylarini olib tashlash uchun tekshirilgan. Olingan natijalar o'zgartirilmagan vermiculit bilan solishtirganda yog'ni olib tashlash 60% ga sezilarli o'sishini ko'rsatgan [8]

**e)Tabiiy vermiculit uzun zanjirli to'rtlamchi alkil**

**ammoniy tuzlari bilan o'zgartirilishi** kationli almashinuviga bilan

o'zgartirilgan va keyinchalik turli xil tuzilmalar va etilen oksidi/propilen oksidi nisbati




**1-rasm.Vermikulit va alkil ammoniy tuzlari ishtirokida olingan kationit tuzilishi.**

bilan polieter poliollar olingan. Ushbu ishda tabiiy vermiculit ikki turdag'i organomodifikatorlar bilan modifikatsiyasi qilindi va polieferlar asosida poliollarga tarqaldi, so'ngra Poliuretan-vermiculit kompozitlarini sintez qilish uchun erituvchisiz polimerizatsiya amalga oshirilgan [8].

**f)Vermikulit karbamid bilan modifikatsiyasi** Ushbu ishda karbamid yordamida karbamid ishtirokida gidrotermik gidroliz Mg-Al-JG trombositlari va vermiculit substrantlari o'rtasida kuchli yopishqoqlikni ko'rsatadigan Mg-Al-JG/Ver uchun ishlab chiqilgan. Ushbu sorbentga Cr(VI) ni yuqori sorbsion qobiliyati va regeneratsiyasi an'anaviy Mg-Al-JG kukuni bilan solishtirilgan [9].

**j)Vermikulit 3-aminopropiltretoksisilan bilan payvandlanishi** Ushbu ishda vermiculitga 3- aminopropiltretoksisilan bilan payvandlanish reaksiyasi o'r ganilgan. Tadqiqot shuni ko'rsatadi vermiculitga payvandlasnish uch funksiyali bo'lib immobilizatsiyalangan silan molekulalari parallel, bir qatlamlili va perpendikulyar tartibda joylashgan. Shuningdek dastlabki vermiculit hamda payvandlangan vermiculitning sirt faolligigi solishtirilgan. 2-rasmda vermiculitga 3- aminopropiltretoksisilan molekulasining payvandlash reaksiya sxemasi keltirilgan [9].



**2-rasm. Vermikulit qatlamlariga organik birikmalarni kimyoviy modifikatsiya qilish.**

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi fikrlardan quyidagilarni xulosa qilish mumkin: tuproq minerallari hisoblangan halloysit, bentonit, montmorillonite, vermiculit va attapulgitlar so'ngi yillarda asosiy adsorbent sifatida ishlatalish sohasi kengayib bormoqda. Quyidagi ilmiy tadqiqot ishida Vermikulitni turli xil reaktivlar yordamida modifikatsiya usullari orqali ionitlar ya'ni sorbentlar olinishi va og'ir metal ionlaridan Cu(II), Pb(II), Cr(VI), Cd(II) va Zn(II) kabilarning yutilishi taqqoslab chiqilgan. Demak Vermikuylit asosida tannarxi arzon, sorbsion qobiliyati yuqori ion almashinuvchi kompozitsion materiallar sifatida sanoat miqyosida ishlatish mumkin.

## REFERENCES

1. Курбанов, Х. Г., Ахмедова, Н. Н., Сагдиев, Н. Ж., Турсунмуратов, О. Х., & Бекчанов, Д. Ж. (2020). Модификация гиалуроновой кислоты. Universum: химия и биология, (10-1 (76)), 32-36.
2. Tursunmuratov, O. X. (2022). Vermikulit asosida olingan ionitga statik sharoitda oraliq metall ionlarining sorbsiyasi. Science and Education, 3(12), 182-188.
3. Турсунмуратов, О. Х., Турғун, Ф., & Хурамова, К. (2023). ВЕРМИКУЛИТ АСОСИДА ОЛИНГАН ИОНИТГА НИКЕЛ (II) ИОНЛАРИ СОРБЦИЯСИННИГ ПСЕВДО-БИРИНЧИ ВА ПСЕВДО-ИККИНЧИ ТАРТИБЛИ КИНЕТИК МОДЕЛЛАРИ. Academic research in educational sciences, 4(1), 413-421.
4. Obid, T., Murod, J., Davronbek, B., & Mukhtarjon, M. (2022). KINETICS AND ISOTHERM OF CU<sup>2+</sup> ION SORPTION ON A NEW SORBENT OBTAINED ON THE BASIS OF

VERMICULITE. Universum: технические науки, (12-7 (105)), 44-48.

5. Qutlimuratov, N. M., Tursunmuratov, O. X., & Bekchanov, D. J. (2020). Polivinilxlorid plastikati asosidagi anionitning fizik-kimyoviy xossalari. SamDU ilmiy axborotnama Samarqand, 5, 22-26.

6. Турсунмуратов О.Х., Кутлимуратов Н., Хушвақтов С., Бекчанов Д.Ж.

Вермикулит асосида олинган янги ионитга  $Cu^{2+}$  ионларининг сорбция кинетикаси Proceedings of the International Conference «Innovative approaches to the development of educationproduction Cluster in the oil and gas field» Tashkent 2022. pp-153

7. Tursunmuratov Obid Xamzayevich, Bekchanov Davronbek Jumazarovich Vermikulit asosida olingan ionitga  $Ni^{2+}$  ionlarining sorbsiya kinetikasi va izotermasi Koordinatsion birikmalar kimyosining hozirgi zamon muammolari” mavzusidagi Xalqaro ilmiy–amaliy konferensiya materiallar to’plami, Buxoro 2022 22-23-dekabr, 511-515 bet

8. Tursunmuratov Obid Xamzayevich, Bekchanov Davronbek Jumazarovich Kinetics and isotherm of  $Cu^{2+}$  ion sorption on a new sorbent obtained on the basis of vermiculite Koordinatsion birikmalar kimyosining hozirgi zamon muammolari” mavzusidagi Xalqaro ilmiy–amaliy konferensiya materiallar to’plami, Buxoro 2022 22-23-dekabr, 511-515 bet

9. О.Х.Турсунмуратов, Ф.Т.Хуррамова, Д.Ж.Бекчанов. Вермикулит асосида олинган ионитга  $Cu^{2+}$  ионларининг сорбция изотермаси II International scientific and scientific-technical conference. Problems and prospects of Innovative technique and technology in agri-food chain. Tashkent 2022. pp-163